

INFORMATSION XURUJLARNING OLDINI OLISHGA QARATILGAN TARG'IBOTNING SAMARALI VOSITALARI

A. Abduraxmonov

Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: *XXI-asr insoniyat tarixiga yangi axborot asri nomi bilan kirib keldi. Bugungi davr shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari, kibernetika, kompyuter va boshqa nano texnologiyalarning rivoji bilan xarakterlanadi. Maqolada Axborot, axborotlashgan jamiyat tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi, kelib chiqish sabablari, mazmun-mohiyati haqida gap boradi. Shuningdek ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat tushunchasining kelib chiqishiga tegishli bo'lgan tarixiy faktlar, ijtimoiy-iqtisodiy sabablar haqida va bugungi kundagi jarayonlarni qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *axborotlashuv, axborotlashgan jamiyat, integratsiya, globalizatsiya, kompleks axloq, ijtimoiy aloqa, axloqiy norma, madaniy me'yor, internet, kompyuter, elektronika, kibernetika, yangi davr sohalari, qadimgi davr sivilizatsiyalari.*

Abstract: *The 21st century has entered human history under the name of a new information age. Today's era is characterized by the rapid development of information technology, cybernetics, computers and other nanotechnologies. The article deals with the historical evolution of the concept of information, information society, its causes, content and essence. This article also covers historical facts related to the origin of the concept of an informed society, socio-economic causes, and current processes.*

Keywords: *informatization, information society, integration, globalization, complex ethics, social communication, ethical norms, cultural norms, internet, computer, electronics, cybernetics, new age fields, ancient civilizations.*

Bugungi voqelik mustamlakachilik siyosatiga asos bo'lgan mafkuralar hali zavol topmaganini ko'rsatmoqda. Shuni, aytish mumkinki, insoniyat jiddiy tanlov oldida turibdi. Dastlabki paytlarda asosan ijobiy jihatdan baholangan globallashuv, vaqt o'tgach, tanqidga uchray boshladi. Insoniyat bu jarayonni noto'g'ri o'zanga bursa, oxir – oqibat o'zi uning qo'lidagi o'yinchoqqa aylanib qolishi hech gap emas. Chunki keng miqyosli integratsiya va globallashuv jarayonlari jahon taraqqiyotining xozirgi paytdagi muhim xususiyatlaridan biri ekanini e'tirof etgan holda, ularning kuchli mafakuraviy ta'sir ko'rsatish vositasi ekanini ham unitmaslik darkor.

Bugungi kunda globallashuv ko'p muhokama qilinayotgan va eng baxsli muammolardan biriga aylangan. Ko'plab anjumanlar, munozaralar, nashrlarda bu muammo olimlar, siyosatchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, tadbirkorlar, madaniyat xodimlar, diniy arboblar tomonidan qizg'in muhokama qilinmoqda. Bunda globallashuv jarayonining turli jixatlari – uning mazmun mohiyati, qachon boshlangan, ko'rinishlari, ijtimoiy xayotdagi boshqa jarayonlarga ta'siri, ijobiy va salbiy oqibatlari

kabi masalalar ko'plab bahslarga sabab bo'layapdi. Bu boradagi fikrlar, yondashuvlar va baholarning rang – barangligi mazkur masalaning barcha jihatlarini va qirralariga oydinlik kiritilganini anglatmaydi. Aksincha, bu muammo yechimi jiddiy tahlilga, chuqur va atroflicha mushohadaga muhtojligidan darak beradi.

Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan quyidagi faktga e'tibor qaratamiz.

Iqtisodiyotning barcha sohalarining globallashuvi va “yangi, tobora kuchsizroq va kam resursli” siyosiy mustaqil “hududiy tuzilmalar”ning “qizg'in” bo'linishi... o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, bir-birini bir-biriga bog'laydi va mustahkamlaydi”. Aftidan, bu zamonaviy madaniyatdagi mafkuraviy shakllanishlar sohasida ham kuzatilmoqda. Asl shakllanishlar dominant massa yo'nalishidan "avtonomlashtirishga" moyildirlar. Yoshlar subkulturalari deb ataladigan holatda, bu muammo alohida soya oladi [1].

Ayrimlar globallashuvni tarixan istiqbolli sanab, mamlakatlar rivoji va ravnaqiga turtki bo'lishini uqtirsalar, boshqalar, uni ozchilik uchun qulay va maanfatli bo'lgan, ammo butun – butun halqlarni qashshoqlikka mahkum etayotgan jarayon sifatida baholamoqda. Fikrlar shunchalar xilma – xilki, kimdir globallashuvni so'zsiz ma'qullab, u berayotgan ne'matlarni maqtasa, yana kimdir bu jarayonni imperializmning yangi shakli sifatida keskin tanqid qiladi. Kimdir globallashuvda umumiy taraqqiyot va tinchlikning qudratli xarakatlantiruvchi kuchini, yana kimdir o'z xayotiy manfaatlari va dunyo tinchligiga xavfni ko'radi.

Garchi globallashuv jarayonining ilk ildizlari tarix qa'ridan o'rin olgan bo'lsa-da, u XX asr hodisasi sanaladi. “sovuq urush”ning tugashi va ikki qutibli dunyoning barham topishi jaxon maydonida globallashuv jarayonlarining shakllanishi, ayniqsa, uning iqtisodiy negizlari rivoji uchun kuchli turtki bo'ldi. Ikki ijtimoiy iqtisodiy tuzum – kapitalizm va sotsializmning qarama qarshiligi tugatilishi bilan globallashuv jahon taraqqiyotining ustivor yo'nalishiga aylanib qoldi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, barcha omillar globallashuv tabiiy va obyektiv jarayon ekanini ko'rsatmoqda oxirgi o'n yillikda globallashuv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, insoniyat taraqqiyoti davomida bir qancha axborot inqiloblari sodir bo'lgan. Ular jamiyat xayotida sifat o'zgarishlarini keltirib chiqargan. Ilk axborot inqilobi yozuvining kashf etilishi bilan bog'liq bo'lib, ulkan sakrashga sabab bo'lgan. Negaki avloddan avlodga bilimlarni uzatish imkoniyatini yaratgan.

Ikkinchi inqilob Guttenberg ning nomi bilan bog'liq bo'lib, XVI asrning o'rtalarida ommaviy kitob bosishning ixtiro etilishi oqibati yuz bergan. Bu kashfiyot jamiyat, madaniyat, tafakkurining tubdan o'zgarishiga olib keldi [2].

Uchinchi inqilob XIX-asrda elektr quvvatining ixtiro etilishi ta'sirida yuz bergan bo'lib [3], buning sharofati ila 1847 yilda telegraf, 1870 yilda telefon, 1895 yilda radio, 1922 yilda simsiz telegraf, 1930 yilda televideniye paydo bo'ldi. Bu vositalar har qanday miqdordagi axborotni to'plash va tezkor uzatish imkonini berdi. 1946 yilda yaratilgan radiotelefon tizimi keyinchalik mobil aloqaga asos bo'lib xizmat qildi.

To'rtinchi inqilob XX-asrning 70 yillarida yuz berdi shaxsiy kompyuterlar paydo bo'ldi [4]. Bu axborot inqilobi inson va jamiyat borlig'ini tubdan o'zgartirib yubordi. U vaqt va makonni "siqdi", geografik va vaqt bilan bog'liq to'siqlarni yemirdi, chegaralarni ochib tashladi, dunyoning istalgan nuqtasi bilan muloqot qilish imkonini yaratdi, faoliyat turlarining mazmunini o'zgartirdi. Ilgari amalga oshirilishiga oylar va yillar sarflangan ishlar endi sanoqli kunlar va daqiqalarda amalga oshirila boshladi. Yangi sharoitda "hudud" va "masofa" tushunchalari o'zining avvalgi mazmuni va ahamiyatini yo'qotdi.

Axborot nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, dunyo kichraygandek ko'rinadi. Doimo muloqotda bo'lish imkoniyati paydo bo'lgani tufayli masofalar endi insonlarni kamroq darajada ajratayotganga o'xshaydi.

Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi axborotlashgan jamiyatga oid qarashlarning rivojiga turtki bo'ldi. Ta'kidlash joizki, axborot instruksiyasi taraqqiy topgan mamlakatlar "axborotlashgan jamiyat" [5] nomini olmoqda. Bu mamlakatlarda telekommunikatsiyalar va kompyuter tizimlaridagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishini tashkil etadi.

Daniyel Bell axborotlashgan jamiyatning muhim bir jihatiga urg'u beradi. Uning yozishicha, "bilimlarning tizimga solinishi innovatsiya omili hisoblanadi, bunday bilimlar "jamoaviy boylik"ka aylanadi, chunki barcha insonlar ochiq bo'ladi". Haqiqatan ham, axborotlashgan jamiyatda bir insonning aql-idroki, quvvatiga umuminsoniy aql-zakovat qudrati qo'shiladi [6]. Axborotlashgan jamiyatda:

- ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta'siri yanada ortadi;
- axborot texnologiyalari insonlar va tashkilotlarning shaxsiy, xususiy hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo'ladi, masalan, mamlakatning istagan fuqarosi haqida axborot to'plash va uning erkinligini bo'g'ish yo'lida bu ma'lumotlardan foydalanish mumkin bo'ladi;
- axborot texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyati ortadi;
- sifatli va haqqoniy axborotni tanlab olish muammosi yuzaga keladi;
- ko'pchilik kishilar uchun axborotlashgan jamiyat muhitiga moslashish murakkablik tug'diradi;
- axborot texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan kishilar bilan iste'molchilar o'rtasida uzilish yuzaga kelish havfi tug'iladi;
- jamiyatning texnologik imkoniyatlari bilan sotsial sohani va madaniyatni rivojlantirish bilan bog'liq imkoniyatlari o'rtasida tafovut paydo bo'ladi.

Axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari. Agar axborot resurslari oqilona tashkil etilsa va o'rinli foydalanilsa, u mehnat, moddiy va energetik resurslar ekvivalenti sifatida ishtirok etishi mumkin.

Axborot zaxiralari – alohida hujjat, hujjatlar to'plami hamda axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, fond, ma'lumotlar banklari, turli axborot tizimlari)dagi hujjatlar to'plamidir [7].

Axborot madaniyati insonning ijtimoiy tabiatiga bog'liq bo'ladi, uning ijodiy qobiliyatlari mahsuli sanaladi va qo'yidagilarda o'z ifodasini topadi:

- texnik qurilmalar (telefon, kompyuter, axborot tarmoqlari) dan foydalana bilish;
- o'z faoliyatida ko'p sonli dasturiy mahsulotlar jamlangan kompyuter texnikasini qo'llashga qodir bo'lish;
- turli manbalar: davriy nashrlar, elektron kommunikatsiyalardan o'zi uchun kerakli axborotni olish, uni tushunarli tarzda taqdim etish va undan samarali tarzda foydalana olish;
 - axborotni tahliliy qayta ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;
 - turli axborotlar bilan ishlash malakasiga ega bo'lish;
 - o'z faoliyat sohasida aloqador axborot oqimlariga xos xususiyatlarni bilish;
 - informatsion bag'rikenglik va informatsion faollik.

Bu ko'nikmalar insonga atrof-muhitni samaraliroq o'zlashtirish, kasb malakasini oshirish imkonini beradi, o'z ustida ishlashi, turli moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Globallashtirish va yangi xalqaro axborot tartibi shakllanayotgan bir sharoitda deyarli to'rt asr avval mashhur ingliz faylasufi Frensis Bekon tomonidan aytilgan "Kimki axborotga egalik qilsa, u dunyoga egalik qiladi" degan so'zlar yangicha mazmun kasb etmoqda [8].

Globallashtirish jarayonining amal qilish ko'lami iqtisodiy va siyosiy makon bilan cheklanmasdan, sotsio-madaniy soxani ham qamrab olmoqda. Bir qarashda, shaxs dunyoqarashining kengayishi, dunyoni bilish imkoniyatlarini ortishi intellektual rivjlanish sifatini yaxshilanishiga, madaniy ayriboshlashning boyishiga, insonlarning samarali o'zaro ta'sirini yo'lga qo'yishga insoni ijodiy salohiyatini erkin rivojlantirishga shart – sharoitlar tug'dirmoqda. Biroq ilg'or kommunikatsiya vositalari tufayli madaniy va axborot ayriboshlashning jadalligi va shiddati bir necha marotaba kuchayib, yagona milliy madaniyatni saqlab qolishga urinishlar samaradorligini pasaytirib yubormoqda. Madaniy sohadagi globallashtirish masalasi tahliliga o'tishdan avval, sotsiolog olim I.Vallerstaynning quyidagi fikrini keltirish o'rinlidir: "madaniyat doimo kuchlilarning quroli bo'lgan".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda jamiyatimizda kechayotgan bunday jarayonlarda e'tiborli bo'lish, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash lozim. Bunda:

- ularda, turli xildagi ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish;
- yoshlarni ma'naviy merosimiz namunalari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;

- yosh bolalarga mobil telefonlar va kompyuter o'yinlarining inson sog'ligi, ma'naviyati, ongiga yetkazadigan salbiy ta'sirlari haqida tushuntirish ishlari olib borish lozim.

Shundagina biz yoshlarimizni, shu bilan birga xalqimizni har qanday yovuz kuchlar va ma'naviy tahdidlar to'fonidan omon saqlaymiz, ular qalbida yurtga sadoqat, vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantira olamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Daminova "Globallashuv jarayonida yoshlar muammosi" Central Asian academic journal of scientific research. 366-b.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Johannes_Gutenberg.
3. J.Kamolov, I.Ismoilov, U.Begimquloy, S.Avazboyev. Elektr va magnetizm. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007.- 280 b.
4. <https://vism.ru/uz/who-where-when-created-the-first-personal-computer-what-is-a-personal-computer.html>.
5. Sh. O'ktamov. "Axborotlashgan jamiyat tushunchasining mazmunmohiyati va tarixiy evolyutsiyasi" National University of Uzbekistan Volume 3 / NUU Conference 2 / 2022 Google Scholar indexed. 523 b.
6. O. O'sarov, Axborotlashayotgan jamiyat talablari: qonun, ijro, mas'uliyat. O'zbekiston matbuoti, 2008 yil 3- son, 7-9 b. Do'stmuhammad X. Globallashuv davri va axborot makoni. (O'zbekiston matbuoti, 2007 yil 3-son, 12-14 b.).
7. N.Duisenov, B.Akhmedov. Jamiyatni axboratlashtirish. jamiyatning axborot potentsiali. <https://www.researchgate.net/publication/348916583>.
8. D. Shukurova, Axborot va jamiyat. Milliy tiklanish, 2009 yil 29 iyul. 9 b.